PIRIMQUL QODIROV ASARLARINING LINGVOSTILISTIK TAHLILI.

Hikmatova Munavvarxonim Odiljon qizi
Buxoro davlat universiteti Filologiya
fakulteti 6.1 uzb 24-guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24246483

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyondasi Pirimqul Qodirov asarlarining lingvostilistik xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy obyekti sifatida Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" va boshqa asarlari tanlandi. Ulardagi leksik, frozeologik, morfologik va lingvopoetik birliklar tahlili olib boriladi.
Kalit so'zlar: Pirimqul Qodirov, leksin, morfologik tahlil, frozeologizm, lingvopoetika, tarixiy roman.

Abstract: This article examines the linguistic features of the works of Pirimqul Qodirov, a major figure in Uzbek literature. The main object of the study was Pirimqul Qodirov's works "Starry Nights" and others. An analysis of lexical, phraseological, morphological and linguopoetic units in them is carried out.
Keywords: Pirimqul Kadirov, lexicon, morphological analysis, phraseology, linguopoetics, historical novel.

Аннотация: В данной статье рассматриваются языковые особенности произведений Пиримкула Кодирова, выдающейся фигуры узбекской литературы. Основным объектом исследования стали произведения Пиримкула Кодирова «Звёздные ночи» и другие. Проведён анализ лексических, фразеологических, морфологических и лингвопоэтических единиц в них.
Ключевые слова: Пиримкул Кадиров, лексика, морфологический анализ, фразеология, лингвопоэтика, исторический роман.

Kirish: Badiiy asar tilini lingvistik jihatdan o'rganish yozuvchining shaxsiy uslubini, uning so'z tanlash mahoratini, personaj nutqini shakllantirish usullarini hamda milliy mazmunni ifodalash imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham Pirimqul Qodirov asarlarining lingvistik tahlili ko'p jihatdan muhim va o'zbek badiiy nasri tilini tadqiq etishda ahamiyatlidir. Asarlardagi so'zlarning leksik, morfologik, lingvopoetik, sintaktik, tarixiy va badiiy tahlili uni yanada tushunarli va aniqroq anglashga yordam beradigan jihatlardan hisoblanadi.

Pirimqul Qodirovning asarlarida leksik birliklar xilma-xilligiga ega bo'lib, ularning asosiy qismini xalqona iboralar va sheva elementlari tashkil qiladi. Adib ko'pincha o'z asarlarida o'zbek adabiy tilining boyligini ko'rsatishga harakat qiladi. Uning matnlarida birliklar o'rtacha 70 foiz miqdorda xalq tilidan olingan, 30 foiz esa adabiy usulda ishlatiladi. Bundan tashqari 50 dan ortiq turli shevalar va dialektlardan foydalanilgan. Uning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" asarlarida tarixiy davrning ijtimoiy siyosiy va madaniy muhitini ifodalovchi leksik birliklar salmoqli o'rin egallaydi. Xususan, "Yulduzli tunlar" Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va Temuriylar davri voqealarini badiiy aks ettiruvchi tarixiy roman sifatida tarixiy shaxslar, davlat boshqaruvi, harbiy hayot, saroy munosabatlari va kundalik turmushga oid ko'plab leksik birliklarni o'z ichiga oladi. Asarda tarixiy muhitni ifodalashga xizmat qiluvchi amirzoda, dorug'a, begim,mulozim, mahofa singari birliklarni uchratish mumkin. Bunday

belgilar zamonaviy kitobxon uchun faqat lug'aviy ma'no tashuvchi birliklar emas, balki tarixiy davrning ijtimoiy-madaniy belgilarini ham ifodalovchi vositalardir.

Bundan tashqari ushbu asarda qo'shin, lashkar, sarkarda, askar, yurish, jang, qal'a, taxt kabi birliklar harbiy-siyosiy leksika mohiyatini ochib berish uchun xizmat qilgan deyishimiz mumkin. Bu qatlamning alohida tadqiq etilgani ham bejiz emas. 2025-yilda Zokir Nazarov tomonidan "Yulduzli tunlar" romanidagi harbiy leksikaga bag'ishlangan ilmiy maqolasi e'lon qilingan bo'lib, unda harbiy leksikaning tarkibi, ma'nosi va kelib chiqishi masalalari o'rganilgan.

Tarixiy roman tilining muhim qatlamlaridan biri antroponimlardir. "Yulduzli tunlar" da real tarixiy shaxslarning nomlari faol qo'llanadi. Bobur, Humoyun, Shayboniyxon, Husayn Boyqaro kabi tarixiy shaxslar roman syujetining markaziy qatlamini tashkil etadi.Ushbu antroponimlarning yana bir muhim xususiyati shundaki, ayrim hollarda shaxs nomi bilan birga uning unvoni, lavozimi yoki qarindoshlik munosabati ham beriladi. Natijada nomning o'zi tarixiy-madaniy axborot tashuvchi birlikka aylanadi.

Bundan tashqari Pirimqul Qodirov asarlarida dialectal so'zlar keng qo'llaniladi. U o'z asarlarida jonli xalq tilini aks ettirishga intilib, turli hududlarga xos bo'lgan so'z va iboralarni keltiradi. Bu usul asar tilini yanada reallashtirishga xizmat qiladi. Adibning dialektal so'zlarni qo'llash tajribasi uning ijodida muhim rol o'ynab, o'ziga xos uslub va milliy koloritni yaratilishiga yordam bergan.

Trixiy roman tilining asosiy xususiyatlaridan biri unda tarixiy so'zlarning keng qo'llanishidir. Bu so'zlar muayyan davrning ijtimoiy tuzumi, siyosiy boshqaruvi, harbiy tizimi va madaniy hayotini aks ettiradi. Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarida tarixiy so'zlar muhim lingvopoetik vazifa bajargan. Romanda uchraydigan tarixiy so'zlarni bir necha turga ajratish mumkin. Masalan, davlat boshqaruvi va mansabga oid, harbiy sohaga oid, ijtimoiy-maishiy hayotga oid, harbiy -aslahaviy, ma'naviy-madaniy hayotga oid so'zlarni uchratamiz.

"Yulduzli tunlar" asaridagi tarixiy so'zlar tasnifi

	Tarixiy so'z turi	**Izoh**	**Namunaviy misol**
1	**Arxaizmlar**	Hozirgi adabiy tilda iste'moldan chiqqan , ammo tarixiy-badiiy matnda davr ruhini beruvchi so'zlar	Sipoh, cherik, navkar
2	**Lavozim va unvon nomlari**	Davlat boshqaruvi va harbiy tizimga oid tarixiy nomlar	Mirzo, hokim, lashkarboshi
3	**Harbiy terminlar**	O'sha davrning urush va mudofaa tizimini ifodalaydi	Qal'a, qilich, sipar
4	**Ijtimoiy tabaqa nomlari**	Jamiyatdagi ichtimoiy qatlamlarni ko'rsatib, tarixiy muhitni ochib beradi	Dehqon, amaldor, quldor
5	**Maishiy Madaniy-so'zlar**	Davrga xos turmush tarzini va urf-odatlarni yoritadi	Saroy,chodir xazina

Asarda frazeologik birliklardan ham keng foydalanilgan. "Yuragi yondi", "ko'ngli og'ridi", "boshini devorga urdi" kabi birliklar qahramonlarning ruhiy holatini kuchliroq anglashga yordam beradi. Shuningdek "og'ziga urmoq" iborasi asarda gapirtirmaslik, haqiqatni aytishga

yo'l qo'ymaslik ma'nosida qo'llangan. Tarixiy shaxs uzun Hasan obrazi orqali aynan shu ibora ishlatilgan.

Bundan tashqari asarda "Quyoshni to'sib olga qora bulutlar" o'xshatishi orqali Bobur o'z atrofidagi ayrim amaldorlarni (Uzun Hasan, Ahmad Tanbal, Yoqubbek) ramziy tarzda qorong'u kuchlarga qiyoslaydi. Bu yerda Bobur va uning hukmron davlati quyoshga qiyoslangan bo'lsa, unga xiyonat qilgan amaldorlar qora bulut sifatida tasvirlanadi.

Asarda qo'llangan maqollarga keladigan bo'lsak, bu qatlam keng ko'lamni tashkil qiladi. Masalan, "O'zing uchun o'l yetim", "Qirq yil qiron kelsa ham ajali yetgan o'ladi", "Tog'ning boshi qorsiz bo'lmas, yigitning boshi xatarsiz bo'lmas", "Yaxshi bo'lsa oshini yeydi, yomon bo'lsa boshini", "Mardlar maydonda sinalgay", "Yiqilgan kurashga to'ymas" kabilar.

Xulosa. Pirimqul Qodirov asarlarining lingvostilistik tahlili adibning o'zbek badiiy nasri taraqqiyotidagi o'ziga xos o'rnini belgilashga yordam beradi. Uning badiiy tili tarixiylik, milliylik, xalqonalik, obrazlilik va individuallik tamoyillarining o'zaro uyg'unligi bilan xarakterlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Z.Nazarov. Pirimqul Qodirov "Yulduzli tunlar" asarida qo'llangan harbiy leksika.2025.
2. Pirimqul Qodirov"Yulduzli tunlar". "Yangi asr avlodi" nashriyoti 2016.
3. "O'zbek xalq maqollari" H.Suvanqulova."Adabiyot uchqunlari" 2014.
4. "O'zbek tilining izohli frozeologik lug'ati" SH.Rahmatullayev. "O'qituvchi" nashriyoti. T.1978.
5. Izzat Sulton "Adabiyot nazariyasi". "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent-2005-y.
6. Nurullayev S. O'zbek adabiy tanqidi tarixi.-Toshkent:Fan,1996.
7. Qo'chqorov O. O'zbek romanchiligi tarixi.-Toshkent: O'zMU nashriyoti,2006.